

muhofaza, ijtimoiy barqarorlik va korporativ boshqaruvni yagona tizimda birlashtirib, korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bois, zamonaviy sharoitda ESG ko'rsatkichlarini joriy etish nafaqat ixtiyoriy tashabbus, balki barqaror rivojlanishning zarur sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. ESG tamoyillari investorlar ishonchini oshirish, capital bozorini rivojlantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston - 2030 strategiyasi" – Toshkent, 2023.
2. Porter M.E., Kramer M.R. *Creating Shared Value*. – Harvard Business Review, 2011.
3. ECD. *Corporate Governance and Sustainability*. – Paris, 2020
4. World Bank. *ESG and Sustainable Finance*. – Washington, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
6. www.wikipedia.com

YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT MODERNIZATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI ESG KO'RSATKICHLARI ORQALI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Otaboyev Umrbek Umidbek o'g'li

Xalqaro Nordik universiteti asistent o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari asosida, ayniqsa yashil texnologiyalarni joriy etish jarayoni bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ESG yondashuvi orqali sanoat modernizatsiyasini kompleks baholashga qaratilgan metodologik model O'zbekiston sharoitida hali to'liq shakllanmagan.

Tadqiqot jarayonida mamlakat sanoatida muhim o'rin tutuvchi bir qator yirik korxonalar - "Navoiyazot" AJ, "Navoiyuran" DK, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ hamda UzAuto Motors AJ - ning rasmiy ESG hisobotlari tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan "Yashil ESG-modernizatsiya indeksi" (YEMI) amaliy sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalar O'zbekistonda sanoat korxonalarida ESG hisobotchiligi hali shakllanish bosqichida ekanini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, YEMI indeksi "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar bilan uyg'un holda sanoat modernizatsiyasini har tomonlama va miqdoriy jihatdan baholash imkonini beruvchi amaliy instrument sifatida taklif etiladi.

Kalit so'zlar: yashil texnologiyalar, sanoat modernizatsiyasi, ESG ko'rsatkichlari, YEMI indeksi, iqtisodiy samaradorlik, O'zbekiston.

So'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillari asosida sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish jarayonlari tobora muhim strategik yo'nalishga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini o'zida mujassam etgan yashil texnologiyalarni joriy etish sanoat rivojlanishining yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Mazkur jarayonlarni baholash va monitoring qilishda xalqaro miqyosda ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari tizimi muhim

metodologik instrument sifatida keng qo'llanilmoqda. ESG yondashuvi korxonalar faoliyatining nafaqat iqtisodiy natijalarini, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat hamda korporativ boshqaruv samaradorligi bilan bog'liq omillarni ham kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi yashil texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorligini ESG ko'rsatkichlari tizimi orqali baholashga qaratilgan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularni O'zbekiston sanoat korxonalar faoliyati misolida qo'llash imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot predmeti sifatida yashil texnologiyalarni joriy etish sharoitida sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish jarayonida ESG ko'rsatkichlari orqali iqtisodiy samaradorlikni baholashga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvlar hamda ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun tadqiqot doirasida bir qator ilmiy vazifalar qo'yildi. Avvalo, ESG ko'rsatkichlari tizimining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda uning sanoat modernizatsiyasi jarayonidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash zarur deb topildi. Shuningdek, yashil texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan sanoat modernizatsiyasini ESG mezonlari orqali baholashda qo'llanilayotgan ilg'or xorijiy metodologiyalar o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlari hamda institutsional moslashuv darajasi tahlil qilindi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini joriy etish, energiya samaradorligini kamida 20 % ga oshirish hamda zararli gazlar chiqindilarini 20 %ga qisqartirish kabi strategik maqsadlar belgilangan [7]. Mazkur ustuvor vazifalar sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish jarayonlarini zamonaviy baholash mexanizmlari bilan ta'minlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda yashil texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan sanoat modernizatsiyasini ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari orqali baholash masalasi xalqaro ilmiy hamjamiyatda tobora muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Mahalliy olimlar orasida B. A. Ismoilovning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiq. Muallif sanoat modernizatsiyasini amalga oshirish orqali energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish imkoniyati mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Bundan tashqari, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan institutsional va iqtisodiy chora-tadbirlar mamlakatning ekologik barqarorligi bilan bir qatorda iqtisodiy barqarorligini ham mustahkamlashi mumkinligi ta'kidlanadi [1].

Muhammad E. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalalari o'rganilgan. Muallif qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish, yashil innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda ekologik siyosatni institutsional jihatdan mustahkamlash kabi yo'nalishlarni iqtisodiy o'sishni atrof-muhitga zarar yetkazishdan ajratish strategiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqadi [2].

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish masalalari davlat siyosati darajasida ham muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan PQ-436-sonli qarorida “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar” belgilab berilgan [3].

Mahalliy tadqiqotchilardan Xoliqovning ilmiy ishlarida ham sanoat va transport sohalarida energiya sarfini qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik talablar asosida optimallashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yashil ko‘rsatkichlarga erishish yo‘llari tahlil qilingan [4].

Xorijiy ilmiy manbalar tahlili ESG ko‘rsatkichlari va sanoat modernizatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi xalqaro miqyosda ham keng o‘rganilayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, Wu va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli transformatsiya ishlab chiqarish korxonalarining ESG samaradorligiga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish jarayonlari korporativ shaffoflikni oshirish orqali ESG ko‘rsatkichlarining barqaror ravishda yaxshilanishiga xizmat qiladi [5].

Bundan tashqari, Niu D. va Wang Z. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ESG tizimining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot mualliflari modernizatsiyaning keyingi bosqichida bo‘lgan iqtisodiyotlarda, jumladan Xitoy misolida, ESG tizimi hali to‘liq shakllanib ulgurmaganini va uning iqtisodiy samaradorligi yetarlicha o‘rganilmaganini ta’kidlaydi [6].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ESG tamoyillarini sanoat modernizatsiyasi jarayonlariga integratsiya qilish masalasi xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida ushbu jarayonni ESG ko‘rsatkichlari asosida kompleks baholashga qaratilgan metodologik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotda sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorligini ESG ko‘rsatkichlari asosida baholash maqsadida qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini mahalliy va xorijiy kompaniyalarning ESG hisobotlari, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Ushbu manbalar sanoat modernizatsiyasini baholashda ESG tamoyillarining qo‘llanish amaliyotini tahlil qilish hamda ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik qismida O‘zbekiston sanoat korxonalari faoliyatini baholash uchun moslashtirilgan kompozit indikator – “Yashil ESG-modernizatsiya indeksi” (YEMI) ishlab chiqildi. Mazkur indeksni shakllantirish jarayonida ko‘p o‘lchovli indekslarni qurishning miqdoriy metodologiyasiga asoslanildi. Indeks tarkibiga ESG konsepsiyasining uch asosiy komponenti – ekologik (E), ijtimoiy (S) va korporativ boshqaruv (G) ko‘rsatkichlari kiritildi. Har bir komponent tegishli indikatorlar tizimi asosida baholanib, ularning iqtisodiy va institutsional ahamiyatini hisobga olgan holda differensiallashtirilgan og‘irlik koeffitsientlari qo‘llanildi.

Hozirgi sharoitda yashil texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat ishlab chiqarishining kengayishi bir tomondan iqtisodiy o‘sishning muhim omili bo‘lsa-da, boshqa tomondan energiya resurslari iste‘molining ortishi va ekologik yuklamaning kuchayishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli sanoat korxonalari faoliyatini ESG ko‘rsatkichlari - ekologik mas‘uliyat, ijtimoiy ta‘sir va korporativ boshqaruv samaradorligi mezonlari asosida kompleks baholash zarurati tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot doirasida O'zbekistonning to'rtta yirik sanoat korxonasi - "Navoiyazot" AJ, "Navoiyuran" DK, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ hamda UzAuto Motors AJ - faoliyati bo'yicha rasmiy ESG hisobotlari tahlil qilindi. Ushbu korxonalar mamlakat sanoatida yetakchi o'rin tutishi bilan birga, yashil texnologiyalarni joriy etish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida muhim tajribaga ega hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadvalda mazkur korxonalar faoliyatining ekologik (E), ijtimoiy (S) hamda korporativ boshqaruv (G) komponentlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu indikatorlar keyingi bosqichda ishlab chiqilgan YEMI kompozit indeksini hisoblash uchun birlamchi ma'lumotlar bazasi sifatida xizmat qiladi hamda sanoat modernizatsiyasining ESG mezonlari asosidagi umumiy darajasini aniqlash imkonini beradi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonning to'rtta yirik sanoat korxonasida ESG tamoyillarining joriy etilish darajasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi hamda har bir korxonaning ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv yo'nalishlaridagi rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu tahlil sanoat modernizatsiyasi jarayonlarida ESG ko'rsatkichlarining amaliy ahamiyatini baholashda muhim analitik asos vazifasini bajaradi.

Ekologik (E) komponent bo'yicha eng yuqori natija UzAuto Motors AJ faoliyatida kuzatiladi. Korxonadan energiya sarfi va ishlab chiqarish chiqindilarining 2021-yilga nisbatan 60 foizga qisqartirilgani, shuningdek, General Motors barqaror dizayn standartlarining ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilingani yashil modernizatsiya yo'nalishida sezilarli natijalarga erishilganini ko'rsatadi.

1-jadval

ESG komponentlari bo'yicha batafsil ko'rsatkichlar [8].

Korxonalar	E - Ekologik ko'rsatkichlar	S - Ijtimoiy ko'rsatkichlar	G - Boshqaruv (Governance)
"Navoiyazot" AJ	GRI va SASB standartlari, issiqlikxonaga gazlari monitoringi mavjud; tashqi tasdiqlash yo'q	Mehnat xavfsizligi dasturi va ijtimoiy mas'uliyat yoritilgan; aniq LTIFR yo'q	Choraklik KPI, monitoring hisoboti (2024); birinchi ESG hisoboti; tashqi audit yo'q
"Navoiyuran" DK	ISO sertifikatlari, IFRS S2, chiqindilar qayta ishlash 24%, muqobil energiyaga 810 ming	Xavfsizlikka \$5,108 mln, baxtsiz hodisalar -60%; LTIFR = 0,7	PwC ESG-diagnostikasi, Fitch reytingi 61 ball, Sustainable Fitch, BMT balli, BMT Global Compact
"HET" AJ	Miqdori ko'rsatkichlar to'liq oshkor etilmagan; energiyaga investitsiyalar hisobotda cheklangan	LTIFR va mehnat xavfsizligi	KPMG (Big Four) asosida xalqaro standartlar tasdiqlangan; eng yuqori shaffoflik
UzAutoMotors AJ	Energiya sarfi va chiqindilar -60% (2021 ga nisbatan); 100 ming daraxt, GM barqaror dizayn	Korporativ madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat dasturlari; +50 000 avtomobil ishlab chiqarish	Birinchi rasmiy ESG hisoboti; xalqaro daromad \$4 mlrd; xalqaro audit yo'q

Bu holat mazkur korxonani ekologik modernizatsiya bo'yicha ilg'or amaliy tajribaga ega sanoat subyektlaridan biri sifatida tavsiflash imkonini beradi. "Navoiyuran" DK esa ekologik boshqaruv tizimining institutsional jihatdan mustahkamligi bilan ajralib turadi. Xususan, ISO standartlariga muvofiq sertifikatlash,

IFRS S2 talablari asosida hisobot yuritish hamda chiqindilarning 24 foizini qayta ishlash ko'rsatkichi ushbu korxonaning ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan faol siyosatini namoyon etadi. Shu bilan birga, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ (HET) faoliyatida ekologik ko'rsatkichlarning yetarli darajada miqdoriy ifodada oshkor etilmaganligi tahlil jarayonida sezilarli kamchilik sifatida qayd etildi. Bu holat ESG hisobotchiligi tizimini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Ijtimoiy (S) komponent bo'yicha eng yuqori natijalar "Navoiyuran" DK faoliyatida qayd etildi. Korxonadan ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan 5,108 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalar, LTIFR (Lost Time Injury Frequency Rate - vaqt yo'qotishga olib kelgan jarohatlar chastotasi) ko'rsatkichining 0,7 darajasida qayd etilishi hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sonining 60 foizga qisqartirilgani ushbu korxonaning ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini amalda izchil tatbiq etayotganini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichlar korxonada mehnat xavfsizligi va xodimlar farovonligini ta'minlash masalasiga tizimli yondashayotganini tasdiqlaydi.

Korporativ boshqaruv (G) komponenti bo'yicha esa "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ eng yuqori shaffoflik darajasini namoyon etadi. Xususan, korxonadan tayyorlangan ESG hisobotining KPMG xalqaro audit kompaniyasi tomonidan tasdiqlangani korporativ boshqaruv jarayonlarining ochiqligi va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Biroq "Navoiyazot" AJ hamda UzAuto Motors AJ hisobotlarining hali xalqaro mustaqil auditdan o'tmaganligi alohida qayd etilishi lozim.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan tahlil natijalari O'zbekiston sanoat korxonalarida ESG hisobotchiligi tizimi hali shakllanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Korxonalar faoliyatida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv komponentlari turli darajada rivojlangan bo'lib, uchala yo'nalish bo'yicha ham bir xil darajada yuqori natijalarni namoyon etayotgan yagona korxonadan hali mavjud emas. Bu esa sanoat modernizatsiyasi jarayonida ESG tamoyillarini tizimli ravishda integratsiya qilish va ularni kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida yashil texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorligini ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari tizimi orqali baholashga qaratilgan metodologik yondashuv ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston sanoat korxonalarida faoliyatini kompleks tahlil qilish imkonini beruvchi kompozit indikator - "Yashil ESG-modernizatsiya indeksi" (YEMI) taklif etildi hamda uning amaliy qo'llanish imkoniyatlari sinov tariqasida tahlil qilindi.

Empirik tahlil O'zbekistonning to'rtta yirik sanoat korxonasi - "Navoiyazot" AJ, "Navoiyuran" DK, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va UzAuto Motors AJ faoliyati misolida amalga oshirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mahalliy sanoat korxonalarida ESG hisobotchiligi tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv komponentlari turli darajada rivojlanmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, uchala komponent bo'yicha ham bir xil darajada yuqori natijalarni namoyon etayotgan yagona korxonadan mavjud emasligi aniqlandi. Bu esa sanoat korxonalarida ESG tamoyillarini

tizimli ravishda joriy etish hamda ularni yagona metodologik asosda baholash zaruriyatini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, taklif etilgan metodologik yondashuv O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish siyosati hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar bilan uzviy uyg'unlikda ishlab chiqilgan. Shu jihatdan, YEMI indeksini sanoat modernizatsiyasi jarayonlarini kompleks baholashda qo'llash mamlakatda barqaror sanoat rivojlanishini ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda ESG tamoyillariga asoslangan boshqaruv amaliyotlarini keng joriy etishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilov, B. A. (2024). "O'zbekiston - 2030" strategiyasi: yashil iqtisodiyot. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024(12). <https://e-itt.uz>
2. Muhammad, E. (2024). Iqtisodiy o'sishni atrof-muhit degradatsiyasidan ajratish: O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. <https://doi.org/10.sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/1940>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2022, 2-dekabr). 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida (PQ-436-son). <https://lex.uz/docs/-6303230>
4. Xoliqov, A. R. (2025). Yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish. Innovations in Science and Technologies, 6(2), 405–412. <https://innoist.uz>
5. Wu, Y., Zhang, L., & Chen, M. (2024). Technology empowerment: Digital transformation and enterprise ESG performance - Evidence from China's manufacturing sector. PLOS ONE, 19(4), e0302029. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0302029>
6. Niu, D., & Wang, Z. (2024). Can ESG ratings promote green total factor productivity? Empirical evidence from Chinese listed companies. Heliyon, 10(8), e29224. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e29224>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022, 28-yanvar). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (PF-60-son). <https://lex.uz/docs/-5841063>
8. "Navoiyazot" AJ. (2024). 2024-yil uchun barqaror rivojlanish to'g'risidagi hisobot. <https://www.navoiyazot.uz>, "Navoiyuran" DK. (2024). 2024-yil bo'yicha barqaror rivojlanish hisoboti - <https://navoiyuran.uz>, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ. (2023). ESG holati to'g'risidagi hisobot - <https://www.het.uz/oz/pages/view/ESG>, UzAuto Motors AJ. (2023). Barqaror rivojlanish hisoboti. <https://uzautomotors.com>

AHOLI DAROMADLARI VA SUG'URTA XIZMATLARIGA TALAB O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI EKONOMETRIK BAHOLASH

Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi moliyaviy infratuzilmaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim institutsional mexanizm vazifasini bajaradi. Sug'urta xizmatlari nafaqat risklarni taqsimlash va kompensatsiya qilish instrumenti, balki jamg'arma va investitsiya resurslarini